

**TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI**  
**№5- SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI**

Toshknt sh.

29 dekabr 2021 йил

Rais – professor N.Q.Xaydarov  
Kotib –dotsent A.A.Yuldahev

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

**Kun tartibi:**

1. Xalqaro ta'lim fakultetida o'quv, o'quv-uslubiy ishlar holati xamda uni takomillashtirish chora tadbirlari  
**Ma'ruzachi:** Xalqaro ta'lim fakulteti dekani t.f.d.,dotsent Murtazayev S.S.
  2. Klinik ordinaturada o'quv-uslubiy ishlar, amaliy ishlar holati, mavjud muammolar va takomillashtirish yo'llari  
**Axborotchi:** Klinik ordinatura bo'limi boshlig'i Hasanova H.J.
  3. TDSI akademik litseyi faoliyatida OTM kafedralari bilan vertical va gorizontal integratsiya holati  
**Axborotchi:** TDSI akademik litseyi direktori Mirahimova Sh.A.
  4. Professor o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga saylash.
  5. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
  6. Turli masalalar
- 
1. Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: Xalqaro ta'lim fakultetida o'quv, o'quv-uslubiy ishlar holati xamda uni takomillashtirish chora tadbirlari

**Ma'ruzachi:** Xalqaro ta'lim fakulteti dekani t.f.d.,dotsent Murtazayev S.S.

**QAROR QILINDI:**

1. ARM fondi rus tilidagi zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalar bilan boyitilsin;  
**Mas'ul –Ishlar boshqarmasi boshlig'i**  
**Muddat – doimiy**
2. Institutimiz professor-o'qituvchilari tomonidan qo'shma ta'lim dasturlari talabalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish jadallahshtirilsin.  
**Mas'ul –Kafedra mudirlari**  
**Muddat – doimiy**
3. O'qituvchilar va talabalar o'rtaida xorijiy tillarni o'rganish ommalashtirilsin, til o'rganish uchun sharoit yaratilsin.  
**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari**  
**Muddat – doimiy**
4. Xalqaro ta'lim fakulteti yuqori kurs talabalari uchun klinik fanlar amaliy mashg'ulotlari sifatlari olib borilishi ta'minlansin.  
**Mas'ul – fakultet dekan va kafedra mudirlari**  
**Muddat – doimiy**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi uchinchi masala: TDSI akademik litseyi faoliyatida OTM kafedralari bilan vertical va gorizontal integratsiya holati

**Ma'ruzachi:** TDSI akademik litseyi direktori Mirahimova Sh.A.

**QAROR QILINDI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan "Yo'l xarita" sida fan dasturlari asosida o'quv adabiyotlari-darsliklar, o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish tizimi takomillashtirilsin.

**Mas'ul – TDSI akademik litseyi direktori**

**Muddat – doimiy**

2. TDSI kafedralari va akademik litsey kafedralari o'rtaida fanlarni o'zlashtirishda hamkorlikda integratsiya darslari yanada kuchaytirilsin.

**Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor va TDSI akademik litseyi direktori**

**Muddat – doimiy**

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida akademik litseyning moddiy texnik bazasi yanada takomillashtirilsin.

**Mas'ul – Ishlar boshqarmasi boshlig'i va TDSI akademik litseyi direktori**

**Muddat – doimiy**

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Turlii masalalarda

**QAROR QILINDI:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 24 dekabrdagi "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" 1030-sonli qarorida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 27 avgust 545-sonli "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorining 40-bandiga muvofiq) ko'rsatilgan mezonlar asosida Toshkent Davlat stomatologiya institutining professor-o'qituvchilari – fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga (yoki horijiy mamlakatlarning ularga tenglashtirilgan darajasiga) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki horijiy mamlakatlarning ularga tenglashtirilgan darajasiga) ega bo'lgan xodimlariga asosiy ish joyi bo'yicha joriy etilayotgan qo'shimcha oylik va bir martalik to'lov miqdori har bir hodimning ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatiga qo'shgan aniq hissasini hisobga olgan holda ishchi komissiya taqdimnomasiga asosan hisoblansin va hodimlarning lavozim maoshiga qo'shimcha haq to'lash joriy etilsin.

**Mas'ul – Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, Ishlar  
boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i, kadrlar bo'limi  
boshlig'i, xuquqshunos**

**Muddat – doimiy**

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmalariga yuklatilsin.

**Institut Kengashi raisi**



**N.Q.Xaydarov**

*N.Q.Xaydarov*